02-01/8-55
12.07.2023

**"TASDIQLAYMAN"**
O'zbekiston Respublikasi
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza
qilish va iqlim o'zgarishi vazirining
birinchi o'rinbosari

_____________ **O.Qudratov**

2023-yil "___" ___________

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni 2.3-bandi ijrosini ta'minlash bo'yicha**

**CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **I. Vazirlik tizimida masofadan turib, shu jumladan mobil ilovalar orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini ko'paytirish** | | | | |
| 1. | Davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish choralarini ko'rish | 1. Davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish bo'yicha dastlabki takliflar ishlab chiqish.<br>2. "my.gov.uz" yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida vazirlik tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini ko'paytirish choralarini ko'rish.<br>3. Davlat xizmatlarini ko'rsatishda mobil ilovalardan foydalanishni yo'lga qo'yish. | 2023-yil III-chorak | "Eco Mediya markazi" davlat muassasasi **(Ashurov),** Vazirlik markaziy apparati barcha tegishli tarkibiy va hududiy bo'linmalari |
| **II. Davlat xizmatlari uchun undiriladigan to'lovlar miqdorini kamaytirish** | | | | |
| 2. | Ekologiya vazirligi tizimida davlat xizmatlari uchun undiriladigan to'lovlar miqdorini | 1. Vazirlik va uning tizim tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan davlat xizmatlari ro'yhatini shakllantirish, xizmat ko'rsatish | 2023-yil davomida | Yuridik ta'minlash va tartibga solish ta'sirini baholash bo'limi |

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | kamaytirish hamda aholi va tadbirkorlar uchun qulaylik yaratish | muddatlarini qisqartirish va undiriladigan to'lovlarni kamaytirish choralarini ko'rish.<br>2. Ma'lumotlarni vazirlik sayti va boshqa elektron platformalarga joylashtirish.<br>3. Ma'lumotlarni vazirlik va hududiy bo'linmalar binolarining hamma kirishi va ko'rishi mumkin bo'lgan joylarga joylashtirish, doimiy yangilanib borilishini yo'lga qo'yish. | | **(Karimova),**<br>"Eco Mediya markazi" davlat muassasasi **(Ashurov),**<br>Axborot xizmati **(Raxmanbaeva),**<br>Vazirlik markaziy apparati barcha tegishli tarkibiy va hududiy bo'linmalari |
| **III. Talab qilinadigan ortiqcha hujjatlarni bekor qilish** | | | | |
| 3. | Ekologiya vazirligi tizimida davlat xizmatlari tizimida talab qilinadigan ortiqcha hujjatlarni bekor qilish choralarini ko'rish | 1. Idoraviy normativ-huquqiy va texnik hujjatlarni xatlovini o'tkazish va ushbu hujjatlar ro'yxatini shakllantirish;<br>2. Xatlov natijasiga ko'ra quyidagilar bo'yicha tegishli tarkibiy bo'linmalarga ko'rsatma chiqarish: eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan idoraviy normativ-huquqiy va texnik tusdagi hujjatlarni bekor qilish;<br>amaldagi qonunchilik hujjatlari talablaridan kelib chiqib, idoraviy normativ-huquqiy va texnik tusdagi hujjatlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;<br>rus tilida qabul qilingan idoraviy normativ-huquqiy va texnik tusdagi hujjatlarni davlat tilida ishlab chiqish; | Zaruriyatga ko'ra | Yuridik ta'minlash va tartibga solish ta'sirini baholash bo'limi **(Karimova),**<br>Vazirlik markaziy apparati barcha tegishli tarkibiy va hududiy bo'linmalari |

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | | idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjat shakliga o'tkazish. | | |
| **IV. Talab qilinadigan hujjatlarni ko'rib chiqish jarayonlari va muddatlarini keskin qisqartirish** | | | | |
| 4. | Ekologiya vazirligi tizimida talab qilinadigan hujjatlarni ko'rib chiqish jarayonlari va muddatlarini keskin qisqartirish | Ekologiya vazirligi tizimida Davlat xizmatlari uchun talab qilinadigan hujjatlarni ko'rib chiqish jarayonlari va muddatlarini keskin qisqartirish yuzasidan barcha yo'nalishlar bo'yicha o'rganib chiqib takliflar tayyorlash | 2023-yil oktyabr | Yuridik ta'minlash va tartibga solish ta'sirini baholash bo'limi **(Karimova),** Vazirlik markaziy apparati barcha tegishli tarkibiy va hududiy bo'linmalari |
| | **V. Davlat xizmatlari ko'rsatishda shaffoflikni oshirish** | | | |
| 5. | Ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yaxshilash hamda korrupsiyaviy xavflarni barvaqt aniqlash va kamaytirish choralarini ko'rish hamda shaffoflikni ta'minlash maqsadida tabiatni muhofaza qilish sohasida "sirli mijoz" instituti joriy etish | Tabiatni muhofaza qilish sohasida "sirli mijoz" instituti ma'muriy tartib-qoidalar amalga oshirilishi qulayligi va vazirlik hamda uning tizim tashkilotlari, shuningdek, ularning xodimlari tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish va huquqbuzarlik holatlari aniqlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablari, xodimlarning professionalligi va tezkorligi, ularning aholi bilan muomala qilish etiketi darajasi baholab borish | Yil davomida | Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki audit bo'limi **(Urunov),** Ekologik nazorat inspeksiyasi **(Qurbonov)** |

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **VI. Aholi va tadbirkorlar bilan doimiy muloqot maydonchalarini tashkil etish** | | | | |
| 6. | Sohada amalga oshirilayotgan o'zgarish va yangiliklardan aholini xabardor etish, aholi va tadbirkorlarga yaratilayotgan qulayliklar, ularning muammolari yechimi yuzasidan vazirlik tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida tezkor ma'lumotlar yetkazish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda to'g'ridan-to'g'ri muloqot maydonchalarini tashkil etish. | Tegishli mavzu yuzasidan vazirlikning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida (Telegram, Facebok, Instagram, YouTube) jonli muloqot va efirlar tashkil etish.<br>Dolzarb mavzularda mutaxassislar ishtirokida audio va video podkastlar tayyorlash. | Yil davomida | "Eco Mediya markazi" davlat muassasasi **(Ashurov),** Axborot xizmati **(Raxmanbaeva),** Vazirlik markaziy apparati barcha tegishli tarkibiy va hududiy bo'linmalari |
| 7. | "Ekologiya sohasida huquqiy savodxonlik" rukni ostida aholi va tadbirkorlarga ekologiya sohasida munosabatlarni tartibga soluvchi, ularning huquq-manfaatlari yuzasidan qonunchilikdagi tegishli normalar mazmun mohiyatini tushuntirishni yo'lga qo'yish. | Sohada qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyatini tushuntirish bo'yicha targ'ibot tadbirlarni kuchaytirish.<br>Turli ko'rinishdagi media mahsulotlar (reportaj, videorolik, infografika va. h.) | Yil davomida | Axborot xizmati **(Raxmanbaeva),** "Eco Mediya markazi" davlat muassasasi **(Ashurov)** Yuridik ta'minlash va tartibga solish ta'sirini baholash bo'limi **(Karimova),** |
| **VII. Xodimlarning muomala madaniyatini yuksaltirish, tezkor va sifatli xizmat ko'rsatishga o'qitish** | | | | |
| 8. | Xodimlarning davlat xizmatini ko'rsatish bo'yicha | Xodimlarning muomala madaniyatini yuksaltirish, tezkor va sifatli xizmat ko'rsatishga o'qitish yuzasidan reja-jadval | 2023 yil davomida, reja-jadval asosida | Inson resurslarini boshqarish bo'limi **(Ashirova),** |

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | huquqiy bilimlari va malakasini oshirish. | asosida xodimlarni bosqichma-bosqich malakasini oshirish seminar-treninglar tashkil etish. | | Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi **(Bozorov)** |

(Саидов)

(Амирова) (Каримова) (Л. Рахманова) (Б. Урунов) (Х. Пиров)